

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABBOYEVA FERUZA RAJABBOYEVNA

**MEDIADISKURSNING SEMANTIK TIPOLOGIYASI VA STILISTIK
TALQINI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Rajabboyeva Feruza Rajabboyevna

Mediadiskursning semantik tipologiyasi va stilistik talqini (ingliz va o‘zbek tillari misolida)..... 3

Ражаббаева Феруза Ражаббаевна

Семантическая типология и стилистическая интерпретация медиадискурса (на примере английского и узбекского языков)..... 25

Rajabboyeva Feruza Rajabboyevna

Semantic typology and stylistic interpretation of media discourse (in the case of English and Uzbek languages) 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 55

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

RAJABBOYEVA FERUZA RAJABBOYEVNA

**MEDIADISKURSNING SEMANTIK TIPOLOGIYASI VA STILISTIK
TALQINI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4463 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.karsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nosirov Abduraxim Abdimutalipovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Tleumuratov Genjemurat
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jo'rayeva Malohat Muhammadovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillari instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «12» iyul kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 2301112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (327 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25, faks: (99861) 223-59-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «1» iyul kuni tarqatildi.
(2025-yil «1» iyul dagi 13 raqamli restr bayonnomasi).



M. S.Kudaybergenov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Kurbaniyazov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida so‘nggi yillarda ommaviy axborot vositalari va matbuot tiliga qiziqish ortib, mediadiskursning lingvistik jihatlarini tadqiq etish dolzarb mavzuga aylandi. Demokratik islohotlarni amalga oshirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va ijtimoiy muammolarni yoritishda mediadiskursning ahamiyati katta. Media sohasi kengayib, unga oid islohotlar turli ijtimoiy sohalarni qamrab olmoqda. Mediadiskurs tadqiqotlari tilshunoslik bilan bir qatorda ijtimoiy fanlar, siyosat va madaniyat sohalari uchun ham muhim bo‘lib, yangi fikr va yondashuvlarni talab etmoqda. Bu esa kelajakda mediadiskursni yanada chuqurroq o‘rganishga zamin yaratadi.

Dunyo tilshunosligida mediadiskursning dolzarb masalalari ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi roli va ta‘sirini tushunishda muhim ahamiyatga ega. U axborot almashinuvi va fikr bildirish uchun asosiy platforma bo‘lib, jamoatchilik qiziqishini oshiradi hamda ijtimoiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Mediadiskurs insonlar o‘rtasida muloqotni shakllantirish bilan birga, axborot tarqalishining samaradorligini oshiradi va jamiyatdagi muhim masalalarni yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Shuning uchun uni chuqur o‘rganish va tahlil qilish, dolzarb ijtimoiy muammolarga yangi yondashuvlar hamda samarali yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi.

Mamlakatimizda so‘z erkinligini ta‘minlash, axborot boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy muammolarni hal etishdagi rolini kuchaytirish bo‘yicha sezilarli ishlar amalga oshirildi. “Jonajon O‘zbekistonimiz o‘z taraqqiyotining yangi va muhim bosqichiga qadam qo‘yayotgan hozirgi davrda media sohasi vakillari – jurnalist va muharrirlar, rejissyor va operatorlar, blogerlar, tele-radio kanallar, gazeta va jurnallar, nashriyot va bosmaxona xodimlari Vatanimizning demokratik qiyofasini shakllantirish, uni dunyoga tarannum etishga beqiyos hissa qo‘shib kelayotganini el-yurtimiz yaxshi biladi va yuksak qadrlaydi”¹ – deya ta‘kidladi davlat rahbari. Yangi O‘zbekiston mediasi ichki va xalqaro axborot makonida mavqegini mustahkamlashi zarur. Shu bois bu mavzuni o‘rganish media tizimi samaradorligini oshirish, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish uchun muhimdir.

Tadqiqot mamlakatimizda ommaviy axborot sohasiga oid munosabatlarni tartibga solish bilan bog‘liq bir qator davlat dasturlari, jumladan, 2019-yil 2-fevraldagi PF-5653-son “Axborot sohasi va ommaviy kommunikatsiyalarni yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2020-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, Yangi O‘zbekiston sharoitida axborot sohasini rivojlantirish va axborot xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, raqamli iqtisodiyot va axborot jamiyatiga o‘tish bo‘yicha 2020-yil 5-oktabrdagi 6079-son “Raqamli O‘zbekiston — 2030 to‘g‘risida” gi, 2020-yil 28-apreldagi 4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi 5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini

¹ <https://azkurs.org/ozbekistonda-ommaviy-axborot-vositalarining-jamiyatda-orni.html>

sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi 358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha tilshunoslikda mavzu doirasida medialogvistikaga oid bir necha tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular, asosan, media tili, gazeta matnlari, intervyular, yangiliklar va reklama matnlari tahliliga bag‘ishlangandir. Bunday tadqiqotlar mediadiskursning lingvistik, ideologik va tanqidiy tahlilini amalga oshirishga imkon yaratadi. Mediadiskurs tadqiqi jahon tilshunosligida, A.Bell, J.Stokes, M.Talbot, D.Machin, Th.Van Leeuwen, N. Fairclough, O.Boyd-Barret, J.Heritedj va S.Kleyman, D.Greatbax, J.Corner, R.Kay, N.Fenton, N.Nuclear, P.Scannell, J.Stokes² kabi tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari va nazariyalarida o‘z aksini topgan.

O‘z navbatida mediatilshunoslikning asosini shakllantirishga quyidagi rus olimlari katta hissa qo‘shdilar: T.Dobrosklonskaya, N.Aliferenko, N.Olomiskaya, V.Cherniyavskaya, A.Polonskiy, T.Karpilovich, M.Konovalova, M.Volodina, N.Chicherina, T. Van Deyk³ va boshqalar.

² Bell A. The Language of News Media. – Oxford: Blackwell, 1991. – p.296.; Stokes J. How to Do Media and Cultural Studies. – London, 2021. – p.408.; Talbot M. Media discourse. Representation and Interaction. – Edinburgh University Press. 2007. – 3 p.; Bell A., Peter G. Approaches to media discourse. – Blackwell publisher, 1998. – p.21.; Machin D. Leeuwen Th.V. Global Media Discourse. – London, 2007. – p. 2-16.; Fairclough N. Mediadiskurs. – London, 1995. – 20 p.; Boyd-Barret O. Media Imperialism: towards an international framework for the analysis of media systems. Ch. 5 in Mass Communication and Society. – London, 1977. – p.251.; Heritage J., Clayman S., Greatbatch D., The Political News Interview. – London, 1989.; Corner J., Kay R. and Fenton N., Nuclear Reactions. Formal Response in Public Issue Television. – London, 1990.; Scannell P. Saying and showing a pragmatic and phenomenological study of a television documentary. To appear in Text. – London, 1997. – p. 22-40.; Stokes J. How to Do Media and Cultural Studies. – London, 2021. – p. 408.;

³Добросклонская Т.Г. Вопросы изучения медиа текстов: Опыт исследования современной английской медиа речи. – Москва, 2010. –С.288.; Добросклонская Т.Г. Металингвистика: теория, методы, направления. – Москва, 2020. С.178.; Алефиренко Н.Ф. Медиадискурс и его коммуникативно прагматическая сущность // Металингвистика. – Москва, 2016. – С. 49 – 57.; Оломская Н.Н. К вопросу о жанровой классификации медиадискурса. – Москва, 2013. – С. 250–259.; Чернявская В.Е. Медиальность: опыт осмысления формирующейся парадигмы в лингвистике // Международный научный журнал «Металингвистика». 2015. – С.7–14.; Полонский А.В. Современный медиадискурс: ключевые идеи и слова // Русский язык в современном медиaprостранстве: Сб. научных трудов. – Белгород: Политерра, – Москва, 2009. – С. 151 – 160.; Карпилович Т. П. Типы модальности и интернациональность медиадискурса. – Москва, – С 199-200.; Коновалова М.В. Медиадискурс и подходы к его изучению // Вестник Челябинского государственного университета. –Москва, 2015. – С. 101 – 110.; Володина М.Н. Язык СМИ особый язык социального взаимодействия // Язык СМИ как объект междисциплинарного исследования. Ч.2. – М.: Из-во Московского государственного университета, 2004. – С. 38.; Чичерина Н.В. Типология медиатекстов как основа формирования медиаграмотности // Известия Российского государственного педагогического университета им. А.И. Герцена. – 2007. – Вып. 7. – Т. 9.; Ван Дейк Т. Анализ новостей как дискурса // Язык. Познание. Коммуникация. – Москва, 1989.;

O'zbek tilshunoslaridan D.Teshaboyeva, G.Bokiyeva, Sh.Usmonova, Sh.Jabborova Z.Yodgorova, H.Jabborova, I.Toshaliyev, R. Abdusattorov, X.Yahyoyeva, A. Shodiqulova⁴ kabi tadqiqotchilar tomonidan ommaviy axborot vositalari tili, media olamining lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining milliy o'ziga xosligi, mediamakonda matn, axborotning fenomeni, falsafiy asoslari, ijtimoiy axborot tasnifi, mamlakatimizda media ta'limning zarurati, mediasavodxonlikning ilk tushunchalari, asossiz axborotlarning tarqalishi, axborot almashinuvi madaniyatining antropologik xususiyatlari va medialingvistikani rivojlantirish istiqbollari kabi bir qator dolzarb masalalar borasida tadqiqotlar olib borilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida mediamatnlarning diskursiv tahlili orqali semantik tipologiyasi, stilistik talqini va milliy lingvomodellarining xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillarida mediadiskurs tushunchasining nazariy asoslarini hamda uning semantik-tipologik tavsifini kompleks o'rganish;

ingliz va o'zbek mediadiskursida voqeanuvchi til vositalarining diskurs belgilari va ularning semantik-stilistik xususiyatlarini ochib berish;

qiyoslanayotgan tillarda mediamatnlarni kommunikativ – pragmatik jihatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida mediamatnlarni ekspressivlik va milliy modellik xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek mediamatnlaridagi semantik va stilistik birliklar, ularni turli kommunikativ uslubiy qatlamlarda qo'llanilishi.

Tadqiqotning predmeti ingliz va o'zbek tillarida mediamatnlarning diskursiv tahlili orqali semantik tipologiyasi, lingvistik xususiyatlari va ularning stilistik talqini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, qiyoslash, diskurs tahlil, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

⁴ Тешабоева Д.М. Оммaвий axborot vositalari тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2012. – 224 б.; G. Bakiyeva, Тешабоева Д., Оммaвий axborot vositalari тили маданияти// Филология масалалари, – Тошкент, 2019. – 42-46 б.; Тешабоева Д.М. Медиамаконда матн. – Тошкент, 2019. – 208 б.; Usmonova Sh.A. Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari (o'zbek va ingliz tillari misolida): Filol. fan. bo'yicha fals. d-ri (PhD) diss. – Toshkent. 2021. –147 b.; Yodgorova Z.G'. Media Olamning lisoniy manzarasida modallik kategoriyasining o'ziga xosligi: Avtoref. filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2024.; Jabborova H.A. Mediamakonda radio nutqning lingvokulturologik aspekti: Avtoref. filol. fan. dok. diss. – Toshkent, 2024.; G. Bakiyeva.D.M. Teshaboyeva. Ommaviy axborot vositalari tili. – Toshkent, 2019. –137b.; Тошалиев И., Абдусатторов Р. Оммaвий axborot тили ва услуги. –Т.: 2006. – 248 б.; Яхьяева Н.Х. Медиаматн – axборотнинг сифатини белгиловчи восита. –Т.: 2020, 162-б.; Шодикүлова А. Медиаматнда метонимия воқеланишининг когнитив-дискурсив жиҳатлари. –Бухоро, 2022. –51 Б.;

mediadiskur zamon, xronologik, tarixiy, psixologik, virtual evklid makon, mantiq, vaziyat, jarayon, ishtirokchilar roli bo'yicha tiplarga ajratildi va foydalanilayotgan ommaviy axborot vositalarini inobatga olgan holda mustaqil va tobe komponentlar semantik jihatdan isbotlangan;

ingliz va o'zbek mediadiskursda voqealanuvchi til vositalari, diskurs belgilari va ko'chmlari semantik-stilistik jihatdan chog'ishtirma asosda tizimli tahlili ochib berilgan;

tadqiqot ishida ingliz mediadiskursiga xos stilistik vosita "bathos" o'zbek diskursida ham mavjudligi hamda kutilmagan vaziyatni aks ettiruvchi asosiy stilistik vosita ekanligi aniqlangan;

mediadiskursning tahlili ingliz va o'zbek mediamatn va nutqida amal qilinadigan semantik va stilistik me'zonlar asosidagi o'xshashlik va farqlilikni har bir tilning e'tirof etilgan (Espoused models), baholovchi (Evaluative models) va o'zaro aloqa (Models-interaction) lingvomadaniy modellari tashkil qilishi isbotlangan va har bir modelning stilistik talqini ilmiy asosda dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

media sohasiga doir so'zlarning izohini berishga asoslangan "Mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga oid o'zbekcha-inglizcha so'zlarning izohli lug'ati" nashr etilgan. Mazkur lug'at mediaga doir so'zlar izohi bilan mediasavodxonlikni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida mediadiskursning semantik tipologiyasi va stilistik talqini borasida olib borilgan tadqiqot natijasida to'plangan ma'lumotlar va hosil qilingan xulosalar medialingvistikani alohida lingvistik kurs sifatida o'qitish imkonini berishi isbotlangan;

olingan ma'lumotlardan ta'lim muassasalarida jurnalistika, chet tili o'qitishda media va chet tili o'qitishda AKTning dolzarb muammolari bo'yicha o'quv kurslar, seminar mashg'ulotlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nazariy ma'lumotlar jahon tilshunosligida umume'tirof etilgan ilmiy manbalardan olinganligi, tadqiqot ishi doirasida tahlilga tortilgan materiallar zamonaviy ingliz va o'zbek tillari tabiatidan kelib chiqqan holda televideniye dasturlaridagi suhbat va muloqotga oid xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosliligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo'yilgan masalalarning dolzarbligi va aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mediani tushunish va axborotni baholash yo'nalishidagi ilmiy qarashlarning miqyosi kengaytirilganligi, medialingvistik tushunchalarning mazmun-mohiyati milliy va chog'ishtirma nuqtayi nazardan semantik-stilistik talqin qilinganligi, ingliz va o'zbek tillarida medialingvistika bo'yicha nazariy manba yaratishda, medialingvistika, diskursiv mediamatn, medianutq, lingvistik xususiyatlarning turli yo'nalishlardagi tadqiqida hamda darslik va qo'llanmalarni qo'shimcha materiallar bilan ta'minlashda ilmiy-nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati natijalaridan mediamatn yaratish, tahrir mahoratini oshirish, axborotni ta'sirchan tarzda yetkazishda hamda OAV tilining

uslubiy xususiyatlarini yoritishda foydalanilganligi, kelgusidagi medialingvistik tadqiqotlarga yo‘l ochgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Mediadiskursning semantik tipologiyasi va stilistik talqini bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

mediadiskur zamon, xronologik, tarixiy, psixologik, virtual evklid makon, mantiq, vaziyat, jarayon, ishtirokchilar roli bo‘yicha tiplarga ajratilgan va foydalanilayotgan ommaviy axborot vositalarini inobatga olgan holda mustaqil va tobe komponentlar semantik jihatiga doir ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston telekanali” DMdagi “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Adabiy jarayon” dasturlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston telekanali Davlat muassasasining 2024-yil, 14-oktabrdagi № 04-36-1106-son ma’lumotnomasi). Natijada respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni ro‘yobga chiqarish uchun amalga oshirilayotgan ishlar mazmuni boyitilgan;

ingliz va o‘zbek mediadiskursda voqealanuvchi til vositalari, diskurs belgilari va ko‘chmlari semantik-stilistik jihatdan chog‘ishtirma asosda tizimli tahliliga oid ilmiy xulosalarga asoslangan materiallaridan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-F1-OO5 “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish” (2017-2020-yy.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil, 31-oktabrdagi, №508/1-sonli ma’lumotnomasi). Natijada hozirgi zamon ommaviy axborot vositalari tiliga oid an’anaviy qarashlardagi ayrim masalalarga oydinlik kiritilgan;

tadqiqot ishida ingliz mediadiskursiga xos stilistik vosita “bathos” o‘zbek diskursida ham mavjudligi hamda kutilmagan vaziyatni aks ettiruvchi asosiy stilistik vosita ekanligiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq “Mediasavodxonlik va axborot madaniyatiga oid o‘zbekcha-inglizcha so‘zlarning izohli lug‘ati” nomli dastur yaratilishida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil, 20-apreldagi № DGU 42838-sonli guvohnomasi). Natijada medialingvistik tadqiqotlar uchun asos bo‘luvchi media atamalar lug‘ati yaratilib keng kitobxonlar jamoasiga taqdim qilingan;

mediadiskursning tahlili ingliz va o‘zbek mediamatn va nutqida amal qilinadigan semantik va stilistik me‘zonlar asosidagi o‘xshashlik va farqlilikni har bir tilning e’tirof etilgan (Espoused models), baholovchi (Evaluative models) va o‘zaro aloqa (Models-interaction) lingvomadaniy modellari tashkil qilishi isbotlangan va har bir modelning stilistik talqiniga doir natijalardan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2023-yil uchun chora- tadbirlar dasturining X yo‘nalishida belgilangan “Yangi, zamonaviy ta’sirchan targ‘ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish”

50-bandi “Mamlakatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, targ‘ibot-tashviqot ishlarining zamonaviy va ta’sirchan usullarini ishlab chiqish hamda hududlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqib, yangi mafkuraviy texnologiyalarni keng joriy etish mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. (Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil, 21-noyabrdagi, №421-son ma’lumotnomasi) Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar media diskursning semantik tipologiyasini stilistik jihatdan talqin etishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik (PhD) dissertatsiyasi asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 147 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt hamda predmeti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, natijalari, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mediadiskurs medialingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida**” nomli birinchi bobida, medialingvistikaning dolzarb masalalari, mediadiskurs va uning turlari, mediadiskursning lingvistik masalalari yoritib berilgan.

Medialingvistika ikkita asosiy komponent – “media” (ommaviy axborot vositalari) va “lingvistika” tushunchalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘nalishning tadqiqot obyekti ommaviy kommunikatsiya doirasida tilning funksional xususiyatlari hamda tilning faoliyat yuritish prinsiplarini o‘rganishdan iborat. Boshqacha aytganda, medialingvistika tilning muayyan qo‘llanilish sohasi sifatida ommaviy axborot vositalari tilini tizimli tahlil qilish bilan shug‘ullanadi.

Medialingvistika – jahon tilshunosligining nisbatan yangi yo‘nalishi bo‘lib, dastlab Buyuk Britaniyada shakllanib, keyinchalik Avstraliya, AQSh va Germaniyada rivojlangan. 2000-yillarga kelib esa rus tilshunosi T.Dobrosklonskayaning “Теоретические основы медиалингвистики”⁵ nomli doktorlik dissertatsiyasida birinchi marta qo‘llangan.

⁵ Добросклонская Т.Г. Медиалингвистика: системный подход к изучению языка СМИ. – Москва 2008. – 4 с.

Turli mintaqalardagi mediamuassasalarining xilma-xilligi jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Mahalliy mazmundagi yangiliklar globallashib, keng muhokama obyektiga aylanadi, natijada mediafoydalanuvchilar o'rtasida fikr almashinuvi yuzaga keladi. Bu jarayon esa muloqot maydonini shakllantiradi va mediadiskursning vujudga kelishiga zamin yaratadi.

“Media” atamasi ingliz tiliga XVI asr oxirlarida kirib kelgan bo'lib, lotinchadagi “medium” so'zidan olingan. Uning lug'aviy ma'nosi “o'rta”, “vosita” yoki “oraliq kanal” tushunchalarini anglatadi. Dastlab bu atama turli vositachilik funksiyalarini ifodalash uchun ishlatilgan. Muloqot kontekstida esa media odatda “aloqa vositasi” yoki “xabar yetkazish kanali” ma'nosini bildiradi. Tilning “muloqot modeli”ga ko'ra, media ma'ruzachidan tinglovchiga xabarni uzatishda vositachi sifatida xizmat qiladi. Shu jarayonda media orqali ma'lumot uzatiladi va kommunikativ aloqa shakllanadi⁶.

Mediadiskurs masalasida turli olimlar bir-biridan farq qiluvchi yondashuv va ta'riflarni ilgari surishgan. Jumladan, Alan Bell nazariyasiga ko'ra, “Media diskurs ijtimoiy va madaniy kontekstda til va kommunikatsiyaning jamiyatdagi rolini o'rganadi. Bu diskursning vazifasi axborotni oddiygina yetkazish bilan cheklanmaydi, balki axborot qanday tuzilishi va turli ijtimoiy kontekstlarda qanday qabul qilinishini tushunishga yo'naltirilgan”⁷, – deb ta'kidlaydi. Bellning bu fikri, mediadiskursning faqat axborot uzatish emas, balki uni jamiyatda qanday qabul qilinishi va ijtimoiy kontekstga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganishga qaratilganligini ko'rsatadi.

T.Dobrosklonskaya nazariyasiga ko'ra “Mediadiskurs – bu ommaviy axborot vositalarida til va nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstda qanday shakllanishi, tarqatilishi va qabul qilinishini o'rganadigan kommunikativ jarayon deydi”⁸. Dobrosklonskaya ommaviy axborot vositalari tilining ijtimoiy, madaniy va ideologik jihatlarini tahlil qilishga urg'u beradi. Ya'ni, matbuot, televideniye, radio va internet orqali tarqatiladigan axborot ijtimoiy ongni shakllantirish, jamoatchilik fikrini boshqarish va madaniy qadriyatlarni uzatishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbek tilshunosligida D.Teshaboyeva esa “Mediadiskurs – dolzarb ijtimoiy axborotni yig'ish, ishlov berish va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali davriy tarqatish bo'yicha ijtimoiy faoliyat⁹dir. Ushbu nazariyasiga ko'ra, mediadiskurs ijtimoiy axborotni yig'ish, ishlov berish va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali tarqatish jarayonini anglatadi. Bu jarayon, faqat axborot almashinuvi bilan cheklanmay, axborotning jamiyatda qabul qilinishini va uni tarqatishda qatnashuvchi barcha ijtimoiy tashkilotlar va shaxslarning faoliyatini o'z ichiga oladi. Mediadiskurs ommaviy axborot vositalarida yuzaga keladigan kommunikativ jarayon sifatida, axborotning jamiyatga qanday ta'sir qilishi, qanday shakllar va vositalar orqali yetkazilishi, qanday ijtimoiy aloqalar orqali qabul qilinishi bilan bog'liq bo'ladi.

⁶ Marina L. and Alan D. Analysis of the media. – Cambridge, 2014, – p.22.

⁷ Allan B. Approaches to media discourse. – Oxford Malden, Mass, 1997. – p. 6.

⁸ Добросклонская Т.Г. Металингвистика: теория, методы, направления. – Москва, 2020. –С. 178.

⁹ Тешабоева Д. Mediakommunikatsiya: Til Siyosati va Madaniyat. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, 2024. –6. 39.

Umuman olganda, jahon va o'zbek media tilshunosligidagi tadqiqotlar doirasida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda mediadiskursga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Mediadiskurs — bu og'zaki yoki yozma shakldagi xabar bo'lib, u so'zlovchi tomonidan yetkaziladi va zamon, makon hamda vaziyat konseptiga bog'liq holda shakllanadi. Og'zaki shaklda u medianutqni, yozma shaklda esa mediamatnni hosil qiladi hamda borliqdagi voqelikning mazmuni va ahamiyatini aks ettiradi. Mediadiskurs ommaviy ahamiyatga ega bo'lgan voqelik bilan bog'liq faoliyat turlarini, ularning farq va o'xshashliklarini hamda mafkuraviy yoki ramziy belgilarini o'zida mujassam etadi. Shuningdek, u ommaviy axborot vositalarida sodir bo'ladigan muloqotni keng qamrab olib, matn, audio va video materiallar hamda turli kommunikativ shakllarni o'z ichiga oladi.

Tilshunoslikda mavjud nazariyalar mediadiskursni uning turli xususiyatlaridan kelib chiqqan holda muayyan turkumlarga ajratiladi. Ushbu tasniflar bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lib, T.A. van Deykning nazariyasiga ko'ra, mediadiskursning vaziyat parametrlari uning turlarini farqlashda asosiy mezon hisoblanadi. Uning nazariyasiga tayangan holda mediadiskurs quyidagi kategoriyalar asosida tasniflanadi: *domain* (soha, tarmoq), *global interaction and communicative type* (global interfaollik va muloqot turi), *functions* (funksiyalar), *intentionality* (istak), *purpose* (maqsad), *date and time* (zamon), *place* (makon), *circumstance* (vaziyat), *brackets and important objects* (dolzarb va ahamiyatli masalalar), *role of participants* (ishtirokchilar roli), *professional role* (mutaxassis roli), *social role* (ijtimoiy rol) hamda *social representations* (ommaviy taqdimot).¹⁰

Medialingvistikada mediadiskurs tadqiqi bir qator masalalarni jumladan tipologik, kognitiv, ekstralingvistik, kommunikativ, paralingvistik kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu masalalar mediadiskursning semantik-stilistik xususiyatlarini belgilab beradi va mediadiskursning kontekstual masalalari sanaladi.

Tadqiqot ishining ikkinchi bobi “**Mediadiskursning qiyosiy semantik tipologiyasi**” deb nomlanib, ushbu bobda ingliz tilidagi mediadiskursning leksik-semantik sathi va tasnifi, o'zbek tilidagi mediadiskursning leksik-semantik sathi va taksonomiyasi, ingliz va o'zbek tilidagi mediadiskursning mustaqil va tobe komponentlarining semantik qiyosi haqida yoritilgan.

Ingliz tilidagi mediadiskursda so'z ma'nolari rasmiy va norasmiy uslubda turlicha ifodalanadi. Rasmiy uslubda asosan akademik neytral va adabiy so'zlardan foydalanilsa, norasmiy uslubda shevaga xos so'zlar, iboralar, nutqiy tuzilmalar hamda so'zlashuv uslubiga xos sleng va jargonlar keng qo'llaniladi.

Masalan: *Stan* - so'zi ingliz tilida ayniqsa, yoshlar orasida juda ko'p ishlatiladigan sleng bo'lib juda ashaddiy muxlis, qo'llab-quvvatlovchi degan ma'noni anglatadi. Masalan, *I stan this new album; it's incredible* (Men ushbu yangi albomning ashaddiy muxlisiman; u ajoyib!) ”*Stan*”- bu yerda- *ashaddiy* degan ma'noda ishlatilgan.

Algorithm so'zi media sohasida ko'p ishlatiladigan termin bo'lib, raqamli platformalarda ma'lumotlarni tartibga soluvchi va foydalanuvchi tajribasini

¹⁰ <https://www.slideshare.net/valen1502/teun-van-dijk>

shakllantiruvchi dasturiy jarayonga aytiladi. Masalan, *Social media algorithms prioritize content based on your interaction history.* (Ijtimoiy media algoritmlari kontentni sizning o‘zaro aloqalarinigiz tarixiga asoslanib ustuvorlik qiladi.)

Teun A. van Deykning diskurs tahlili nazariyasi asosida qaralganda, mediadiskurs leksik-semantik jihatdan bosqichma-bosqich tadqiq qilinishi muhim ahamiyatga ega. Uning yondashuviga ko‘ra, *indekslilik va anafora, deiksiyalar, presuppozitsiya, medianutqning asosiy nutqiy aktlari, kontekstual talab hamda shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan ma’no* diskursning semantik tuzilishi va mazmunini shakllantiruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Mediadiskursda indekslilik kontekstga bog‘liq bo‘lib, shaxsiy, vaqt va joy indekslilik kabi turlarga ajratiladi. Ingliz tilidagi media diskursida deiksiyalar shaxs, joy, vaqt va mavjudlikni ifodalovchi shaxsiz konstruksiyalar orqali voqea-hodisalar haqidagi umumiy axborotni uzatadi. Anafora avvalgi kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, referensial anafora, ekzoforik anafora va katafora kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Presuppozitsiya – bu gap yoki matn tarkibida bevosita ifodalanmagan, biroq oldindan taxmin qilingan ma’lumotni anglatadi. Nutqiy akt muloqot jarayonida aniq bir gapning talaffuz etilishi natijasida yuzaga keluvchi lingvistik hodisa bo‘lib, illyokutiv, perlokutiv, direktiv va deklarativ aktlarga bo‘linadi. Shaxslararo muloqotdagi ma’no esa ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonida hamkorlik, qarshilik, qo‘llab-quvvatlash yoki haqorat kabi turli nutqiy strategiyalar orqali ifodalangan semantik mazmun sifatida namoyon bo‘ladi.

Leksik semantika so‘zlarning turli ma’no qirralarini va ular o‘rtasidagi semantik munosabatlarni o‘rganadi. Leksik munosabatlar *omonimiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya va meronimiya* kabi turlarga bo‘linadi. Bu munosabatlar so‘zlar o‘rtasida mavjud bo‘lib, ularning bir-biriga nisbatan turli xil semantik aloqalarini yaratadi.

Ma’lumki, **Omonimlar** shakli bir xil, ma’nolari har xil (o‘zaro bog‘lanmagan) leksemalardir. Tilshunoslikdagi nazariyalarga tayangan holda, mediadiskurs sohasida omonimlar quyidagi turlarga ajratiladi. Kontekstual, leksik, fonetik va grammatik turlarga ajratiladi. Masalan, “Efir” so‘zi turli diskurslarda har xil ma’noga ega. Media kontekstida u jonli translyatsiya maydonini anglatib, “Dasturimiz jonli efirga uzatildi” kabi iboralarda qo‘llaniladi, ilmiy (xususan, kimyo) kontekstida esa “efir” — bu aniq kimyoviy birikma nomidir. Bu holatda so‘zning ma’nosi kontekstga bog‘liq bo‘lib, media diskursida u abstrakt va emotsional yuklamaga ega, ilmiy diskursda esa texnik va denotativ xarakterda bo‘ladi. Diskurs tahlili shuni ko‘rsatadiki, “efir” so‘zining semantik ko‘p qirraliligi turli ijtimoiy va funksional vazifalarga xizmat qiladi.

Polisemiya – bir so‘zning turli ma’nolarga ega bo‘lishidir. Media diskursida bu hodisa so‘z yoki obrazni turli kontekstlarda ishlatish orqali turli ma’nolar hosil qilishga xizmat qiladi. Mediadiskursda polisemiyalar radial va zanjirsimon turlarga bo‘linadi. Masalan, *qonun ustuvorligi ta’minlanmayotgan holatlardan biriga to‘xtalamiz. Kun.uz surishtiruviga ko‘ra, Farg‘ona shahri markazida ko‘p yillik daraxtlar ko‘chirish yo‘li bilan quritilgan. Ma’lum bo‘lishicha, shaharning Sayilgoh va al-Farg‘oniy ko‘chalari tutashgan joyda 5 yulduzli mehmonxona qurilishi boshlanishi arafasida 25 yillik daraxtlar boshqa joyga ko‘chirilgan, lekin ular yashab ketmagan.. Atrofi o‘rab olingan hududga yetib kelgan quruvchi, ekologiya*

*boshqarmasi vakili va hokimlik rasmiysi ko‘p yillik manzarali daraxtlarning hammasi boshqa joyga ko‘chirilganini aytgan bo‘lsa-da, qo‘porilgan va kesilgan daraxt tomirlari panada qalashib yotibdi. Shu sababli bu hududda yashayotgan odamlarning ayrimlari ham boshqa hududlarga ko‘chishgan*¹¹. Matndagi “ko‘chirilgan”, “tomir” va “quritmoq” so‘zlari turli kontekstlarda turlicha ma’noda ishlatilgan bo‘lib, bu ularning polisemantik (ko‘p ma’noli) xarakterini ko‘rsatadi. Diskurs tahlili shuni anglatadiki, bu so‘zlar rasmiy-huquqiy, ekologik va ijtimoiy diskurslarda muayyan funksional yuklama bilan qo‘llanilib, matnning semantik qatlamlarini boyitadi hamda uning ijtimoiy-tanqidiy mazmunini chuqurlashtiradi.

Turli leksik birliklar bir xil ma’noga ega bo‘lish hodisasi **sinonimiya** deyiladi. Bu hodisa qanday til birliklariga xosligiga qarab, leksik, stilistik, semantik, frazeologik, kontekstual sinonimlarga bo‘linadi. Masalan, *2024 yil avgust oyida O‘zbekistonda ko‘chmas mulk bozori biroz pasaydi, bu tebranish tendensiyalardan dalolat beradi, deya xabar bermoqda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Yillik o‘lchovda faollikning sezilarli darajada pasayishi kuzatilmoqda: uy-joy savdosi 20,8 foizga kamaydi, bu esa uy sotib olishga qiziqishning kamayishini ko‘rsatadi. 2024 yil avgust oyida hududlar kesimida ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlarning eng katta pasayishi Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida, shuningdek Toshkent shahrida qayd etildi. Yillik o‘lchovda Navoiy, Namangan va Toshkent viloyatlarida ko‘chmas mulk savdosining pasayishi har bir hududda 30 foizdan ortiqni tashkil qildi. Joriy yilning avgust oyida respublikada ikkilamchi uy-joy narxi 0,7 foizga oshgan bo‘lsa, o‘tgan yilning avgust oyidan boshlab uy-joyning 1 metr kvadrati uchun o‘rtacha narxi 9,7 foizga ko‘tarilgan.*¹² Ushbu matn rasmiy iqtisodiy-informatsion diskursga mansub bo‘lib, undagi “pasaydi”, “kamaydi”, “susaydi” kabi leksik sinonimlar real iqtisodiy o‘zgarishlarni, “tebranish”, “dinamika” kabi semantik sinonimlar bozor jarayonlarini ifodalaydi. “Dalolat beradi”, “ko‘rsatadi”, “ifodalaydi” kabi stilistik sinonimlar matnning emotsional neytralligini saqlaydi. “Faollikning pasayishi”, “qiziqishning kamayishi” iboralari esa ijtimoiy-iqtisodiy holatni yoritadi. Bunday sinonimlar iqtisodiy diskursning funksional-stilistik xususiyatlarini ochishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Antonimiya – bu bir-biriga zid yoki qarama-qarshi ma’noga ega bo‘lgan leksik birliklarning munosabatidir. Mediadiskursda antonimlar gradatsion, komplementar, vektorli va kontekstual turlarga ajratiladi. Masalan, *“Qayd etilishicha, ayrim ommaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida ishtirokchilar jamoat xavfsizligiga va fuqarolar xavfsizligiga xavf soluvchi xatti-harakatlarni ko‘paytirmoqda.”*¹³ Ushbu gap rasmiy uslubda bo‘lib, siyosiy-ijtimoiy diskursga kiradi va xavfsizlik masalasini yoritadi. Matndagi “xavfsizlik” va “xavf” so‘zlari kontekstual antonimlar bo‘lib, lug‘aviy emas, balki semantik qarama-qarshilik asosida, ijobiy va salbiy holatlar sifatida qarshilashtirilgan. Bu esa mediadiskursda ularning ma’no maydonidagi ziddiyatini ko‘rsatadi.

Giponimiya – umumiy va aniq tushunchalar o‘rtasidagi iyerarxik munosabatni ifodalovchi hodisa bo‘lib, mediadiskursda semantik, differensial, kontekstual va

¹¹ TV.24.10.2024

¹² TV.17.09.2024

¹³ TV. Kun.uz 17.09.2024

leksik turlarga bo‘linadi. Masalan, Semantik-giponimiya esa sport xabarlarida ko‘proq kuzatiladi. Masalan, Sport tushunchasi ostida *futbol, tennis, boks* kabi tarmoqlar joylashadi. Differensial-giponimiya tahliliy maqolalarda uchrab, “*ijtimoiy tarmoq*” deganda “*Facebook, Instagram, TikTok*” kabi platformalar tushuniladi.

Kontent, kontekst, janrlar va imo ishoralar media diskursning asosiy komponentlari hisoblanadi. Kontent, kontekst, janrlar, imo ishoralar bularning barchasi muloqotning ajralmas qismlaridir.

Media kontent – bu media tadqiqotchilar tomonidan yaratiladigan va ommaviy axborot vositalari orqali yetkaziladigan axborot va materiallar majmuasidir. Media kontent shakllari – televideniye, radio, bosma nashrlar va raqamli platformalar orqali yetkaziladigan axborot va ko‘ngilochar materiallarni anglatadi. Media kontentning bir qancha turlari mavjud bo‘lib, matn asosidagi kontent, tasvir asosidagi kontent, audio kontent, video kontent, interaktiv kontentlar eng keng tarqalgan media kontentlar hisoblanadi.

Ingliz mediadiskursida matnli kontent asosan, mustaqil jurnalistika, bloglar va onlayn maqolalarga tayanadi. Raqamli jurnalistika an’anaviy bosma nashrlardan ustunlik qiladi. Masalan, “*UK Economy Sees Unexpected Growth Amid Global Recession Fears*” (Headline). “*How Did the UK Outperform Economic Expectations?*”¹⁴ (Subtitle). Sarlavha va kichik sarlavha ijobiy semantik birliklar orqali iqtisodiy yutuqlarni aks ettiradi hamda global tanazzul kontekstida kontrast yaratish orqali Buyuk Britaniyaning nisbiy ustunligini ajratib ko‘rsatadi. Bunday semantik va diskursiv yondashuv media matni orqali optimistik ruhiyatni shakllantirishga xizmat qiladi hamda milliy ijobiy imijni konstruksiya qilish strategiyasining bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek media muhitida matnli kontent, odatda, rasmiy axborot agentliklari va bosma nashrlarga tayangan holda, neytral va axborotga asoslangan diskursni shakllantiradi. Sarlavha va subtitrlar ko‘proq tahliliy va faktlarga asoslangan bo‘lib, ular davlat siyosati yoki islohotlarni yoritishda vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, “*O‘zbekiston iqtisodiyotida yangi islohotlar: Ekspertlar tahlili*”.¹⁵ (sarlavha) “*Iqtisodiy islohotlar natijasida biznes yuritish sharoitlari qanday o‘zgaradi?*”¹⁶ (subtitr) kabi sarlavhalar analitik va rasmiy ohangda bo‘lib, semantik jihatdan hissiy ifodadan xoli, rasmiy-uslubiy chegaralarda qoladi. Bunday yondashuv O‘zbekistonda an’anaviy jurnalistika modelining yetakchi o‘rinda ekanini, shuningdek, mediatekstlarda davlatga yo‘naltirilgan axborot siyosati saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Media kontekst – axborot yoki xabar media vositalarida qanday tarzda tushunilishi va talqin qilinishiga ta’sir etuvchi omillar majmuasi. Kontekst media matni, vizual yoki audio kontentning mazmunini anglashda muhim ahamiyatga ega. Interpersonal kontekst, guruh konteksti, tashkiliy kontekst, madaniyatlararo kontekst ommaviy kontekst vositali kontekstlar asosiy turlari hisoblanadi.

Ingliz media diskursida vosita konteks barcha turdagi raqamli kommunikatsiyani o‘z ichiga olib, asosiy aloqa shakllari ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, onlayn nashrlar

¹⁴ www.cityam.com

¹⁵ Uza.uz. 25.10.2024.

¹⁶ USBU.UZ. 25.10.2024.

kiradi. Masalan, *“Mediated communication is becoming increasingly important in journalism today. Social media is now a leading platform for news dissemination”*.¹⁷ Bunda “mediated communication” atamasi raqamli vositalar orqali olib boriladigan aloqa shakllarini ifodalaydi, bu ijtimoiy tarmoqlar, televideniya va onlayn nashrlarni qamrab oladi. Gapda vositali kommunikatsiyaning jurnalistikadagi roli ortib borayotgani ta’kidlanadi, hamda ijtimoiy tarmoqlar axborot tarqatishning asosiy platformasiga aylangani misol sifatida keltiriladi. Bu semantik jihatdan kommunikatsiya shakllarining o‘zgarishi va ularning hozirgi axborot makonidagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Ingliz tilida bu tushuncha kengroq qo‘llanilib, interaktiv media va zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

O‘zbek media diskursida vosita konteksi bu media vositalarining zamonaviy texnologiyalar va milliy madaniyat asosida shakllangan kommunikatsiya muhitidir. Masalan, *“Tezkor axborot almashinuvi vositali muloqot vositalari orqali yanada osonlashdi. Endi jamoatchilik ijtimoiy tarmoqlarda xabarlarga tezroq munosabat bildirishi mumkin”*.¹⁸ O‘zbek tilida u ko‘proq an’anaviy elektron kommunikatsiya va rasmiy mediakanallari orqali amalga oshiriladi.

Janr komponenti – media matnining tarkibiy qismi bo‘lib, u ma’lum auditoriyaga mos shakllanadi hamda mediakommunikatsiyaning struktura va xususiyatlarini belgilaydi. Mediadiskursda janr komponentlari informatsion, gibrid va reklama janrlariga ajratilib, ular mustaqil komponentlar hisoblanadi.

Informatsion janrlar o‘zbek media muhitida televideniye yangiliklari, anonslar, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa yangiliklarda nomoyon bo‘ladi. Ushbu janr turi an’anaviy va rasmiy faktlarga asoslangan, qisqa va to‘g‘ridan to‘g‘ri shaklda namoyon bo‘ladi. Masalan, *“Xorazm viloyatida yangi sanoat majmuasi ishga tushirildi. Loyihaning umumiy qiymati 50 million AQSH dollarini tashkil etadi.”*¹⁹ O‘zbek mediamuhitida yangiliklar qisqa, an’anaviy va rasmiy faktlarga asoslangan bo‘ladi.

Ingliz mediadiskursida raqamli yangiliklar, YouTube va onlayn platformalar orqali tez tarqatiladigan, qisqa va aniq xabarlardir. Masalan, *The UK inflation rate drops to 3.5% this month, marking its lowest point in two years*. Ingliz mediamuhitida yangiliklar raqamli platformalarda tez tarqatilib, qisqa va tahlilga asoslangan shaklda taqdim etiladi.

Imo- ishoralar media diskursining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular muloqot jarayonida qo‘shimcha semantik va pragmatik ma’no yuklaydi. Media diskursda imo-ishoralar emblematik (siyosatchining barmoq bilan ishora qilishi), ekspressiv (teleboshlovchining hayrat yoki g‘azabni ifodalashi), ko‘rsatkich (jurnalistning kamera yoki kartaga ishora qilishi), regulyativ (intervyuda so‘z navbatini berish yoki tinglashga undovchi imo-ishoralar) va tasviriy (sport sharhlovchisining o‘yin taktikalarini qo‘l harakati bilan tushuntirishi) turlarga bo‘linadi.

O‘zbek media diskursida imo-ishoralar, asosan, rasmiy muloqot kontekstida axborotni aniqlashtirish va nutqni strukturalash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ular ko‘proq neytral semantik yukga ega bo‘lib, hissiy-emotsional ta’sirdan xoli holda axborotni vizual tarzda mustahkamlashga xizmat qiladi. Masalan, yangiliklar

¹⁷ *New York Times Digital Media Report (2023)*.

¹⁸ O‘zbekiston Milliy Axborot Agentligi (UZA) – “Raqamli media va uning jamiyatga ta’siri” (2023).

¹⁹ Kun.uz

boshlovchisining qo‘l harakati bilan ekranda ko‘rsatilayotgan joyga ishora qilishi — bu ko‘rsatkich imo-ishoraning tipik shakli bo‘lib, tomoshabinning diqqatini kerakli faktga jalb etadi. Yoki siyosiy nutq davomida yetakchining bosh irg‘ab tasdiqlashi emblematik imo-ishora sifatida semantik jihatdan ishonch va qat‘iylik ifodasi sanaladi. Bunday imo-ishoralar O‘zbek jurnalistikasida og‘zaki matnga xizmat qiluvchi vizual komponent sifatida qaraladi va rasmiylik diskursining uzviy qismi bo‘lib qoladi.

Ingliz tilidagi media diskursida esa imo-ishoralar ko‘proq ekspressiv va emblematik funksiyani bajaradi hamda auditoriyada emotsional rezonans uyg‘otishga qaratilgan. Blogger yoki vlogerning keng harakatlar bilan “This completely changed my life!” deya qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib gapirishi ekspressiv imo-ishoraning yaqqol misoli bo‘lib, bu orqali u o‘z his-tuyg‘ularining chinakamligini ta’kidlaydi. Siyosiy chiqishlarda esa nutq davomida qo‘l harakati bilan “*Together, we will rise*” kabi iboralarni ta’kidlash emblematik imo-ishoraning birlik va harakatga da’vat semantikasi bilan uyg‘unlashgan ko‘rinishidir. Bunday diskursda imo-ishoralar shunchaki yordamchi vosita emas, balki axborot va emotsiyani bir vaqtning o‘zida yetkazuvchi ko‘p qatlamli semantik element sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, ingliz media muhitida imo-ishoralar hissiy yaqinlik, ishonchli obraz va muloqot samimiyatini kuchaytirish vositasiga aylangan.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek tillaridagi mediadiskursning stilistik talqini**” deb nomlangan uchinchi bobida ingliz va o‘zbek tilidagi mediadiskursning lingvistik ifoda vositalari, ingliz va o‘zbek mediadiskursining milliy lingvomodellarining stilistik tahlili natijalari muhokama qilingan.

Mediadiskursning lingvistik ifoda vositalari — bu ommaviy axborot vositalarida axborotni yetkazish, auditoriyani ishontirish, emotsional ta’sir ko‘rsatish va ijtimoiy fikrni shakllantirishga xizmat qiluvchi til vositalaridir. Ushbu vositalar mediamatnning uslubiy xususiyatlarini belgilab, uning kommunikativ samaradorligini ta’minlaydi.

Media stilistika ommaviy axborot vositalar tilining uslubiy xususiyatlarini o‘rganadigan tilshunoslikning bir tarmog‘i bo‘lib, matnning uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, uning ma’nosini, ta’sirini va ommaviy axborot vositalarida qanday rol o‘ynashini tushuntiradi va u ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi va tilning ushbu sohada qo‘llanilishi bilan bog‘liq holda paydo bo‘lgan.

Lambrou va Durant²⁰ ilmiy izlanishlarida mediadiskursning lingvistik jihatdan tahlil qilinishini “media stilistikasi” atamasi bilan ifodalash mumkinligini ta’kidlaydilar. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, media stilistikasi ommaviy axborot vositalarida qo‘llaniladigan lingvistik va stilistik vositalarning tizimli tahlilini o‘z ichiga oladi.

Mediadiskursning an’anaviy lingvistik tadqiqiga oid ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu vositalarni umumiy jihatdan asosiy va yordamchi lingvistik vositalar guruhlariga ajratish mumkin.

Asosiy lingvistik vositalarning dastlabki guruhi mediadiskursning o‘ziga xos leksikasini qamrab oladi. Ushbu guruh mediadiskursga xos so‘z tanlovi (asl va

²⁰ Lambrou, M, Durant, A (2014) Media stylistics. – Cambridge, 2014..503–519 p.

ko'chma ma'no), ibora va frazemalar, professional jargonlar, hamda leksik-semantik ko'chimlardan iborat.

Mediadiskursda so'z tanlovi axborotni taqdim etish, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda muayyan g'oyalarni ilgari surish jarayonida muhim lingvistik omil hisoblanadi. Xususan, televideniye ko'rsatuvlari, axborot matnlari, kino hamda boshqa barcha mediamatnlar o'zining denotativ ma'nosidan tashqari qo'shimcha semantik yuklama, ramziy ifoda, umumiy qarashlar yoki auditoriyaga yo'naltirilgan maxsus leksik birliklardan foydalanish xususiyatiga ega. Bunday lingvistik vositalar mediamatnlarda ijobiy yoki salbiy mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot doirasida zamonaviy o'zbek mediadiskursida keng qo'llanilayotgan inglizcha so'zlar, jumladan, "ekskluziv sovg'a", "premium kino", "brendlar" kabi terminlarning qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi.

Televideniye diskursida **iboralar va frazeologizmlar** asosan madaniy kontekstni shakllantirish, auditoriyani jalb qilish hamda axborotni yanada ekspressiv va tasviriy ifodalash maqsadida qo'llaniladi. Ular tilning boyligi va xilma-xilligini namoyon etib, matnning stilistik jozibadorligini oshiradi. Frazeologik birliklarning ma'nosi ko'pincha aniq emasligi sababli, ularning talqini kontekst asosida amalga oshiriladi. Ushbu til vositalari nutqqa badiiylik, ta'sirchanlik va ommaboplik baxsh etadi.

"Frazeologik birliklar – xalqning asrlar mobaynida yaratgan timsoliy ifoda va tasviriy vositalaridir. FBlar xalq ijodiy tafakkurining o'ziga xos mahsuli bo'lib, ularda insonning tabiat va ijtimoiy hodisalarga munosabatlari muxtasar hamda mukammal tarzda o'z ifodasini topadi, nutqqa ko'rkamlik, joziba va obrazlilik baxsh etib, so'zlovchi va tinglovchining kuchi hamda vaqtini tejashga xizmat qiladi, o'quvchitalabalarda kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga ko'maklashadi".²¹

Televideniye diskursida iboralar va frazeologizmlar muhim ahamiyat kasb etib, jamoatchilik fikrini shakllantirish, nutqqa ekspressivlik baxsh etish va muloqotni ta'sirchan qilish funksiyasini bajaradi. Masalan, ingliz tilidagi mediadiskursda *spill the beans* iborasi ("sirni oshkor qilish") ko'pincha realiti-show formatidagi dasturlarda ishlatiladi va "yashirin ma'lumotni oshkor etish" ma'nosini anglatadi. Ushbu ibora ishtirokchilarning o'zaro raqobat sharoitida strategik ma'lumotlarni oshkor qilish jarayonini ifodalash uchun qo'llaniladi. Misol, "*I'm going to spill the beans about my rival's strategy.*" (*Men raqibimning strategiyasini fosh qilaman*) kabi holatlarda, frazeologik birlik dasturning dramatik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi *break a leg* iborasi, literal ma'nosi "oyog'ini sindirmoq" bo'lishiga qaramay, teatr va televideniye diskursida ishtirokchilarga omad tilash maqsadida qo'llaniladigan frazeologik birlik hisoblanadi. Ushbu ibora ko'pincha sahna san'ati vakillari yoki teleko'rsatuvlarda ishtirok etuvchi shaxslar uchun rag'batlantiruvchi tilak sifatida ishlatiladi. O'zbek tilida mazmun jihatidan unga mos ekvivalent sifatida "*Omadingizni bersin!*" ifodasi qo'llaniladi.

O'zbek media nutqida frazeologizmlar keng qo'llanilib, jonli nutqni boyitish va tinglovchiga fikrni obrazli shaklda yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ular, asosan, tok-

²¹ Насиров А.А. Француз, ўзбек ва рус тилларидаги проverbsial frazeologizmlarнинг семантик-стилистик ва миллий-маданий хусусиятлари: док. дисс. автореферати. – Тошкент, 2016. –б. 5.

shoular, yangiliklar dasturlari va ijtimoiy mavzular muhokamasida ishlatiladi. Masalan, *qaynoq nuqta* iborasi “Mahallada duv-duv gap” kabi tok-shoularda qo‘llanilib, keskin bahs-munozaralar va ziddiyatli vaziyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, “*Qaynona-kelin o‘rtasidagi mojaro qaynoq nuqtaga yetib keldi va har ikki tomon o‘z huquqlarini himoya qilishga tayyor*”. Ushbu ibora televideniye diskursida keskinlik va dramatik ta’sirni kuchaytirish uchun qo‘llaniladi.

Mediadiskursda, ayniqsa televideniye sohasida, **professional terminlar va jargonlar** muhim rol o‘ynaydi. Televideniya faoliyat yurituvchi mutaxassislar – jurnalistlar, rejissyorlar, montajchilar, operatorlar va boshqa soha vakillari – tomoshabinlar, tinglovchilar hamda ishtirokchilar bilan muloqat jarayonida ushbu terminologik birliklardan samarali foydalanadilar. Bu esa axborotni aniq va tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Quyida ingliz va o‘zbek tillarida televideniye sohasida keng qo‘llaniladigan termin va jargonlarga misollar keltiriladi. Ingliz tilida ishlatiladigan televideniye terminlari va jargonlari:

Shot (o‘zbek tilida kadr) termini televideniye va kino yoki reklama suratga olish jarayonida qayd etilgan bir lahzani ifodalash uchun ishlatiladi. Har bir sahna turli shotlardan (kadrlar) iborat bo‘lib, ular vizual ifoda va hikoya qilish uslubini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shot turlari turlicha bo‘lib, wide shot (sahnani to‘liq qamrab oluvchi kadr), medium shot (qahramonni beldan yuqorisini aks ettiruvchi kadr) va close-up shot (qahramonning yuzini yaqin planda tasvirlaydigan kadr) kabi asosiy turlarga bo‘linadi. *Merriam-Webster Most Trusted Dictionary* onlayn lug‘ati “shot” so‘zining 11 ta ot, 3 ta sifat ma’nosi va ushbu so‘z ishtirokidagi 4 ta frazani taqdim etsa-da, mediadiskursda u faqat suratga olish jarayonidagi kadr tushunchasini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Cue (kalit so‘z, ishora) televideniye, kino va teatr sohasida aktyorga matn yoki harakatni eslatish, keyingi sahnaga o‘tish uchun signal berish ma’nosini anglatadi va bu signal so‘z, qo‘l harakati yoki musiqa tovushi shaklida bo‘lishi mumkin. Masalan, *Your cue is Hello*. (Sizning keyingi gapiingiz *Salom* bilan boshlanadi.) Ushbu atama sahna ijrosini muvofiqlashtirish va sahnalashtirish jarayonining uzluksizligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek tilida televideniye sohasida qo‘llaniladigan terminlari va jargonlar:

Ovozli izoh (audioscript) – video yoki audio materiallarga qo‘shimcha ma’lumot berish yoki voqealarni tushuntirish maqsadida kiritiladigan ovozli yozuv hisoblanadi.

Xabar (message) televideniye tilida yangiliklarni o‘z ichiga oluvchi va eng mashhur dastur turlaridan biri hisoblanadi. Xabar dasturlari siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, dunyo, madaniyat va ko‘ngilochar dasturlari shaklida bo‘ladi.

Yordamchi lingvistik vositalar: *discourse markers (diskurs belgilar), bog‘lovchi, izohlovchi, tartibga soluvchi va qarama-qarshi fikr bildiruvchi belgilar* hisoblanadi. Mediadiskursning lingvistik vositasi sifatida e’tirof etilgan yuqoridagi asosiy va yordamchi vositalarning har biri mediadiskursni mazmunan boyitib, uning tasvirli, ta’sirli, hissiy va ijtimoiy ahamiyatini ta’minlab berishi ta’kidlangan.

Ko‘chim hosil qilish uchun so‘zning lingvistik va mantiqiy ma’nolarining maqsadli birlashuvi tilshunoslik va adabiyotshunoslikni bog‘lovchi muhim vosita hisoblanadi. Ingliz adabiyotshunosligida jumla tarkibidagi so‘zlarning turli va teskari ma’nolarda qo‘llanilishi bathos deb ataladigan lingvopoetik vositani yuzaga keltiradi.

Bathos yoki antikulminatsiya — bu kutilgan jiddiylik yoki hayajonning keskin teskari tarafga o'zgarishi, natijada kulgili yoki bema'ni holatga aylanishidir. Ingliz adabiyotshunosligida Aleksandr Poup bathos lingvopoetik vositasiga ilk bor tanqidiy yondashgan. U bathosni “yuqori darajadan pastga tushish, jiddiy mavzudan bema'ni narsaga o'tish, bu o'zgarish ko'pincha g'alati yoki kulgili ta'sir yaratadi. Chunki tomoshabinlar bunday ta'sirni kutmagan bo'ladi”²² deb izoh bergan. Ushbu ko'chim turi o'zbek tilidagi televideniye va drammatik diskursda keng qo'llanilsa ham tilimizda unga mos ekvivalent atama mavjud emas. Umumiy ma'noda bathosning asl mohiyatini hazil, mutoyiba, kinoya shaklidagi tanqid tashkil qiladi. Masalan, *Vaziyat*: Mashhur bir realiti-showda ishtirokchi hayotdagi eng katta orzusi va maqsadi haqida g'amgin bo'lib gapiradi. U dunyoni o'zgartirishni, jamiyatga foyda keltirishni va odamlarning hayotida o'zgarish yaratishni orzu qiladi. *Kulgili o'zgarish*: Keyingi sahnada esa, ishtirokchi o'zining g'alabasidan xursand bo'lib, cho'ntagiga to'lgan pul va qimmatbaho sovg'alarni ko'rsatib, "Endi o'zimga yangi mashina olaman!" deb baland ovozda hayqiradi. *Bathosning ta'siri*: Bu o'zgarish tomoshabinlarni kuldiradi, chunki ular ishtirokchining jiddiy so'zlarini eshitib, uning oddiy va moddiy orzuga o'zgarishini kutilmagan deb hisoblaydi.

Mediadiskursda **metafora** boshqa uslubiy vositalarga nisbatan ko'p qo'llaniladigan ko'chim turi sanaladi. U bir obyektning xususiyatlarini boshqa obyektga o'tkazish uchun qo'llaniladi. Masalan, ingliz tilida: Ishtirokchi qo'shiq aytayotganda, hakamlardan biri uni ijrosi tugagandan keyin, uning ovozi ni maqtaydi.

Hakamning “*Your voice just sweeps over you and takes you away, much like a warm summer breeze*” (“Sizning ovozingiz xuddi iliq yozgi shamol kabi sizni qamrab oladi va olib ketadi”) iborasidagi “*warm summer breeze*” (iliq yozgi shamol) metaforasi ishtirokchining ovozig a nisbatan estetik tasvir yaratadi. Ushbu metafora tinglovchilarga ishtirokchi ovozi ning yumshoqligi, jozibadorligi va tinchlantiruvchi ta'sirini anglashi uchun kognitiv asos yaratadi. Bunday badiiy ta'rif orqali ovozning hissiy va atmosferik xususiyatlari eshituvchilarga yanada samarali tarzda yetkaziladi.

O'zbek tilidagi mediadiskursda metaforalar keng qo'llanadi. Masalan, Yulduz Turdiyeva haqidagi “*Bu Yulduz allaqachon osmonda, yana qaysi osmonlarni zabt etmoqchisiz*”.²³ Bunda “*yulduz allaqachon osmonda*” – iborasi uning muvaffaqiyatga erishgan va taniqli san'atkor ekanligini ifodalaydi. Bu yerda *Yulduz* va *osmonda* so'zlari metafora sifatida ishlatilib, uning san'atdagi yutuqlari va cheksiz maqsadlarini ramziy tarzda ifodalaydi.

Mediadiskursda **metonimiya**, lug'aviy va kontekstual ma'nolarning to'g'ridan to'g'ri tengligi emas, balki ularni bog'lovchi umumiy xususiyat yoki aloqaga asoslanadi. Metonimiya, ikki tushunchani bir-biriga qiyoslash o'rniga, ularning bir-biriga qanday bog'langanligini ko'rsatadi.

Masalan: “*That was a great performance, but I think she really brought the “energy” tonight. I think, she had a lot of 'likes' in that performance*”. (Bu ajoyib ijro bo'ldi, menimcha, u haqiqatdan ham bu oqshomga “energiya” olib keldi. Menimcha, u bu ijroda ko'plab “layk” maqtovlar oldi). Bu gapda *energy* va *like* so'zlari lug'aviy

²² Alexander Pope ‘An Essay on Criticism. London. – 1711. <https://catalog.hathitrust.org/Record/100654296>

²³ <https://youtu.be/ce699ssmJw0?si=PeYNXsqWyyvEoM9f>

jihtadan ishtirokchining ijro paytidagi energiyasi va ommaga yoqishini ifodalasa, kontekstual ma'noda *energy* uning ijrochilik mahorati va hissiyotga boy ijrosini, *likes* esa musiqaga bo'lgan muhabbati hamda ijtimoiy tarmoqdagi e'tiroflarni anglatadi. Bu leksemalar hakamlar bahosida faqat texnik ijroni emas, balki emotsional-estetik taassurotni ham yetkazishga xizmat qilib, mediadiskursning stilistik boyligini oshiradi.

O'zbek tilidagi "*Ovoz*" ko'rsatuvida boshlovchi hakamlarga ishtirokchilarning mahoratini baholash uchun murojaat qilganida, "Xo'sh, ana endi bilib olamiz, hakamlarimiz siz *Ovoz*ni tark etasiz deb kimga aytadilar" iborasi ishlatiladi. Bu yerda "*Ovozni tark etmoq*" iborasi denotativ ma'noda ovoz tushunchasiga emas, balki konnotativ jihatdan ko'rsatuvni tark etish jarayoniga ishora qiladi. Bu yerda "*Ovozni tark etmoq*" iborasi denotativ ma'noda ovoz tushunchasiga emas, balki konnotativ jihatdan ko'rsatuvni tark etish jarayoniga ishora qiladi. Ushbu metaforik qo'llanilish til birliklarining ko'chma ma'no kasb etishi va mediadiskursda ifodalarning kontekstual talqiniga misol bo'la oladi.

Mediadiskursda **kinoya** dasturning yanada qiziqarli, jozibali va esda qolarli bo'lishini ta'minlovchi vosita bo'lish bilan birga evfemistik vazifani ham bajaradi. Masalan: ingliz tilida "*Voice*" ko'rsatuvida ishtirokchi katta sahnada qo'shiqni ijro qilganda hakamlar tomonidan ma'qullanmagan paytda odatda kinoya qo'llaniladi. Masalan: "*Well, that was certainly... unique. I've never heard anything quite like that before.*" ("Xo'sh, bu... o'ziga xos yagona ijro edi. Men ilgari hech qachon bunaqasini eshitmaganman"). Hakamlar hay'ati tomonidan qo'llanilgan "unique" (o'ziga xos) so'zi xuddi ijobiy baho berganday tuyuladi. Ammo hakamning ohangi va kontekstdan kelib chiqqan holda, ishtirokchining ijodini tanqid qiladi.

O'zbek tilida: ishtirokchi qo'shiqni ijro qilib bo'lgandan keyin hakamlardan biri uning ijrosi ma'qul kelmaganda fikr bildirganda. Masalan, "*Daler, nimaga ko'proq estrada janridagi sizga o'xshab ijod qiladiganlar o'zbekchaga murojaat qilsa, faqat mana shu so'zga murojaat qiladi, hamma shu tayyorga yopishadi, xuddi o'zbek folklorida bundan boshqa folklor yo'qdek*",²⁴ deb ma'qul kelmaganda tanqid qilishi. Bunda hakamlar o'zbek folklorida "*bundan boshqa folklor yo'qdek*" deganda o'zbek folklori san'atida bundan boshqa ko'plab boshqa ijod namunalari borligi va ularni ham kuylash kerak ekanligini aytib o'tadi. Hakamning xatti-harakati, so'z ohangi uning kinoyali nuqtayi nazarini tushunishga yordam beradi.

Mediadiskursda **epitet** bu obyektни tavsiflash va tamoshabinga ishora qilish uchun ishlatiladigan atributiv so'z/ibora yoki hatto jumalardagi hissiy va mantiqiy ma'nolarning o'zaro ta'siriga asoslangan stilistik qurilma sanaladi. Inqliz tilida: "*The thundering applause*" - Bu yerda "*thundering*" so'zi qarsaklarning kuchli, shovqinli, gulduros ovozi haqida tasavvur hosil qiladi. Bu esa tinglovchida kuchli, hajviy va hayajonli to'lqinlanish uyg'otadi.

O'zbek tilida: "*Shiddatli ovoz*" bu iborada "*shiddatli*" so'zi to'lqinlarning gumburlash, zarb berish kabi kuchli va xavfli ovozi haqida tasavvur beradi. Bu to'lqinlarning kuchli va qo'rquvchan tabiatini ta'kidlaydi.

²⁴ <https://youtu.be/q47fqsLsZ4?si=PoUMotLWi6GM5d8>

Oksimoron mediadiskursda keng va tor ma'noda tushuniladi. Keng ma'noda oksimoron zid ma'noli so'zlarning yonma-yon qo'yish orqali ijobiy yoki salbiy ma'no hosil qiluvchi nutqiy stilistik vositadir. Masalan, ingliz tilidagi "*Deafening Silence*" iborasi fonetik va semantik jihatdan ziddiyatni ifodalovchi bevosita oksimorondir. "*Deafening*" (*quloqni kar qiluvchi*) sifatlovchisi baland shovqin bilan bog'liq bo'lsa, "*Silence*" (*jimlik*) mutlaq tovushsiz muhitni anglatadi. Ushbu ibora orqali nutqning obrazlilik darajasi oshadi va auditoriyaning sezgi orqali shovqinni his qilishi ta'minlanadi. Bu stilistik figura matnning emotsional ta'sirini kuchaytiradi.

O'zbek tilidagi "*Yumshoq kuchli ovoq*" iborasi ham bevosita oksimoron bo'lib, fonetik va semantik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni uyg'unlashtiradi. "*Kuchli ovoq*" tovushning balandligini, "*yumshoq*" esa past yoki bosiq tovushni anglatadi. Ushbu ibora matnda tovushning kuchi bilan birga uning o'ziga xos ohangdor va ta'sirchan ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, bu ibora tovushning muayyan tembrini, intonatsiyasini yoki effektini yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Evfemizm orqali mediaxabarlarining madaniy va ijtimoiy qarashlarga mosligi ta'minlanadi. Mediadiskursda evfemizm medianutqning zaruriy shartlaridan biri sanalib, u mediadiskurs nutqining kaliti hisoblanib butun diskursda dominantlik qiladi. Ingliz tilida: "*You seem a bit off-key*" iborasi ishtirokchini xafa qilishdan tiyilib (Siz ijroda biroz adashdingiz) ma'nosida qo'llaniladi. O'zbek tilida: hakamlar tomonidan "*Siz bu janrda umuman kuylay olmadingiz*" deb haqorat qilmasdan, "*Siz qo'rqmasdan bu janrga qo'l urushga jazm qila oldingiz*"²⁵ deb fikr bildirilishi evfemistik uslubga misol bo'ladi. Televideniye va radio dasturlarida evfemistik ifodalar alohida tadqiqot sifatida o'rganilsa ingliz va o'zbek tillarining madaniy va lingvistik ifodasining uyg'unligidagi ifoda qudrati ochib berilgan bo'lardi.

Klaudia Strauss²⁶ umumiy diskursning madaniy modellarini ularning qo'llanilish usullari va jamiyatga ta'siri jihatidan *e'tirof etilgan modellar* (Espoused models), *baholovchi modellar* (Evaluative models) va *o'zaro aloqa modellar* (Models-interaction) kabi turlarga ajratib tahlil qilgan.

Birinchi, e'tirof etilgan modellar mediadiskursda tomoshabinlar, jurnalistlar, boshlovchilar tomonidan ongsiz ravishda qabul qilingan, ammo ochiqchasiga e'lon qilinmaydigan, "to'g'ri" yoki "oddiy" deb hisoblangan g'oyalar, qadriyatlar va xatti-harakatlarning to'plamidir.

Ikkinchi, baholovchi modellar mediadiskursda o'zimiz yoki boshqalarni baholashda, ongli yoki ongsiz ravishda amal qiladigan mezonlar, umumiy tushunchalar va qadriyatlardir. Baholovchi mezonlar madaniy va ijtimoiy ta'sir natijasida shakllanadi.

Uchinchi turdagi model bu (o'zaro) ta'sir modeli bo'lib, muayyan bir vaziyatga mos va ko'zlangan maqsadga erishish uchun strategik yondashuv natijasida muloqot ishtirokchilari shaxsan qo'llaydigan usullar, harakatlar, verbal va noverbal kommunikativ vositalari va o'zaro muloqotga kirishish qobiliyati ta'sirida ongli yoki ongsiz ravishda yo'naltiruvchi modellardir.

²⁵ <https://youtu.be/jcX3kgtUoPY?si=U-e-CoNtEApIMhPr>

²⁶ Strauss C. A cognitive theory of cultural meaning. 1997, - 8p.

XULOSA

1. Medialingvistika – zamonaviy lingvistik tadqiqotning muhim yo‘nalishi bo‘lib, ommaviy axborot vositalarida til va nutqning shakllanishi hamda ta’sir mexanizmlarini o‘rganadi. Dastlab Buyuk Britaniyada shakllanib, keyinchalik AQSh, Avstraliya va Germaniyada rivojlangan, 2000-yillarda esa Rossiyada mustaqil ilmiy sohaga aylangan. Axborot vositalarida voqealarning turlicha talqini ushbu yo‘nalishda qiyosiy tadqiqotlar olib borishga asos yaratgan. Medialingvistika mediadiskursni lingvistik, stilistik va semantik jihatdan tahlil qilib, matn va nutqning o‘zaro bog‘liqligi hamda kommunikativ jarayondagi rolini aniqlaydi. Mediadiskurs axborot uzatishning ijtimoiy-madaniy va ideologik xususiyatlarini ochib berib, media matnlarning jamiyatga ta’sirini semantik va stilistik jihatdan tushunishga yordam beradi.

2. Mediadiskurs ommaviy axborot vositalarida nutqning yetkazilish shakliga ko‘ra yozma va og‘zaki turlarga ajratildi. Yozma mediadiskurs bosma va raqamli matnlar orqali axborot yetkazsa, og‘zaki mediadiskurs audio va video materiallarga asoslanib, interaktiv muloqotni ta’minlaydi. Mediadiskurs soha, muloqot turi, funktsiya, maqsad, vaqt-makon va ishtirokchilar roli kabi mezonlar asosida tasniflandi.

3. Medialingvistika doirasida mediadiskurs tadqiqi uning semantik-stilistik, kognitiv, ekstralingvistik, kommunikativ va paralingvistik xususiyatlarini qamrab oladi. Mediadiskurs turli tasnif mezonlariga asoslanib, muloqot shakli, ifoda maqsadi, zamon-makon omillari hamda ishtirokchilarning kasbiy va ijtimoiy rollari nuqtayi nazaridan o‘rganildi. Uning kognitiv jihatlari tildan foydalanish, dunyoqarashni kengaytirish va milliy mentalitet aks etishini tavsiflaydi. Ekstralingvistik omillar esa nutq shakllanishi va ta’sirchanligiga bog‘liq jihatlarni tadqiq qiladi. Paralingvistik masalalar verbal va noverbal vositalar, jumladan, ovoz, imo-ishoralar va belgilarning semeotik xususiyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotlar til va media o‘zaro ta’sirini, muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

4. Leksik-semantika nuqtayi nazaridan mediadiskursni tahlil qilish, tilning ijtimoiy va kontekstual jihatlarini o‘rganish, lingvistik semantika haqidagi tushunchamizni kengaytirish maqsadida amalga oshiriladi. Ingliz mediadiskursida indekslilik, anafora, presuppozitsiya, nutqiy aktlar, muallifning istaklari va shaxslararo muloqotdagi ma’no kabi masalalar muhimdir. Nutqning vaqt va vaziyatga bog‘liqligi, shaxslararo muloqotda ma’no almashinuvi va ommaviy aloqa orqali tarqatiladigan ma’lumotlarning mazmuni o‘rganiladi. Bunday tahlil, nutqni chuqurroq tushunishga va lingvistik semantikaning kengayishiga yordam beradi.

5. O‘zbek mediadiskursida leksik-semantik munosabatlar, jumladan, omonimiya, polisemiya, sinonimiya, antonimiya, giponimiya va meronimiya muhim o‘rin tutadi. Omonimlar mazmunga yangi semantik qirralar qo‘shsa, polisemiya bir so‘zning turli kontekstlarda turfa ma’nolarni ifodalashiga imkon beradi, sinonimlar esa ifodaning stilistik rang-barangligini ta’minlaydi. Antonimlar matnda qarama-qarshi tushunchalarni yoritib, fikrning ta’sirchanligini oshiradi. Giponimiya esa umumiy va xususiy tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni belgilab, nutqning mantiqiy tuzilishini shakllantiradi.

6. Media diskursning asosiy komponentlari kontent, kontekst, janrlar va imo-ishoralar bo‘lib, ular ommaviy kommunikatsiya jarayonida axborotning mazmunini shakllantirish va yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu komponentlar o‘zaro bog‘liq holda ikki turga — mustaqil va tobe komponentlarga bo‘linadi. Mustaqil komponentlar axborot kontenti, janrlar va stilistik vositalardan iborat bo‘lib, ular media diskursning asosiy mazmun-mohiyatini belgilaydi. Tobe komponentlar esa mazmunning yanada samarali va ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiluvchi kontekst, imo-ishoralar, grafik elementlar va virtual muloqot vositalarini o‘z ichiga oladi. Bu komponentlarning semantik va stilistik tahlili ingliz va o‘zbek tillaridagi media tili va uslublar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlashda muhim rol o‘ynaydi.

7. Mediadiskursning an’anaviy lingvistik tadqiqi asosiy va yordamchi lingvistik vositalarni farqlaydi. Asosiy vositalar so‘z tanlovi, frazemalar, professional jargonlar va leksik-semantik ko‘chimlarni o‘z ichiga olib, axborotni ta’sirchan yetkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va kommunikativ strategiyalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Yordamchi vositalar esa diskurs markerlari bo‘lib, matnning izchilligi, fikrlarning mantiqiy bog‘liqligi hamda muloqot jarayonining tartibga solinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

8. Mediadiskursda so‘zlarning lingvistik va mantiqiy ma’nolari o‘zaro ta’sirlashib, yangi semantik va stilistik ma’nolar hosil qiladi. Lug‘aviy va kontekstual ma’nolar stilistik vositalar bilan boyitilib, mazmunning ta’sirchanligi oshiriladi. Bathos, metafora, metonimiya, kinoya, epitet, oksimoron, evfemizm va giperbola kabi usullar ifoda imkoniyatlarini kengaytirsa, his-hayajon so‘zlari va intensifikatsiya vositalari hissiy ta’sirni kuchaytiradi. Stilistik vositalar lug‘aviy birliklarga yangi kontekstda chuqur va estetik mazmun baxsh etadi.

9. Mediadiskursda milliy modellar jamiyatning madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy norma va kommunikativ xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lib, turli uslublar va strategiyalar orqali ifodalanadi. Ushbu modellar uch turga bo‘linadi: e’tirof etilgan modellar “to‘g‘ri” qadriyatlarni, baholovchi modellar madaniy me’yorlarga asoslangan baholash mezonlarini, o‘zaro ta’sir modellarida esa strategik kommunikatsiya orqali maqsadga erishish yo‘llarini belgilaydi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi mediadiskurs stilistik xususiyatlarida farqlar mavjud bo‘lib, ingliz tilida raqobat, tanqid va argumentatsiya, o‘zbek tilida esa hurmat, jamoaviylik va ijtimoiy moslashuvga yo‘naltirilgan til xususiyatlari ustunlik qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ИМЕНИ БЕРДАХА**

УРГЕНЧСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАДЖАББОЕВА ФЕРУЗА РАДЖАББОЕВНА

**СЕМАНТИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ И СТИЛИСТИЧЕСКАЯ
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МЕДИИСКУРСА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО
И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ

Нукус – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.1.PhD/Fil4463.

Диссертация выполнена в Ургенчском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)), размещён на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и Информационно-образовательном портале (www.zivonet.uz)

Научный руководитель:

Насиров Абдурахим Абдимуталипович
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Тлеумуратов Генжемурат
кандидат филологических наук, доцент

Джураева Малохат Мухаммадовна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный институт
иностранных языков

Защита диссертации состоится «12» июня 2025 года в 9⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 при Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. (Адрес: 230112, г. Нукус, улица Ч. Абдилова, дом № 1. Тел.: (99861) 223-59-25, факс: (99861) 223-59-25; e-mail: karsuinfo@edu.uz.)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета имени Бердаха (зарегистрирована за № 324). (Адрес: 230112, город Нукус, улица Ч. Абдилова, дом № 1. Тел.: (99861) 223-59-25, факс: (99861) 223-59-25; e-mail: karsuinfo@edu.uz.)

Автореферат диссертации разослан « 1 » июня 2025 года.
(Реестр протокола рассылки № 13 от 1 июня 2025 года).



[Signature]
М.С.Кудайбергенов
Председатель Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
филологических наук, профессор.

[Signature]
Ж.Е.Сейтжанов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению учёных степеней, кандидат
филологических наук, профессор.

[Signature]
Г.А.Курбаниязов
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению учёных
степеней, доктор филологических наук
(DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой лингвистике в последние годы усилился интерес к языку средств массовой информации и прессы, что сделало изучение лингвистических аспектов медиадискурса актуальной темой. Медиадискурс играет важную роль в реализации демократических реформ, формировании общественного мнения и освещении социальных проблем. Развитие медиаотрасли и связанные с ней реформы охватывают различные сферы общества. Исследования медиадискурса важны не только для лингвистики, но и для социальных наук, политики и культуры, требуя новых идей и подходов. Это создает основу для более глубокого изучения медиадискурса в будущем.

Актуальные вопросы медиадискурса в мировой лингвистике имеют важное значение для понимания роли и влияния средств массовой информации в обществе. Они представляют собой основную платформу для обмена информацией и выражения мнений, привлекают общественный интерес и оказывают влияние на социальные процессы. Медиадискурс не только формирует коммуникацию между людьми, но и повышает эффективность распространения информации, играя важную роль в освещении значимых общественных вопросов. Поэтому его глубокое изучение и анализ способствуют выработке новых подходов и эффективных решений актуальных социальных проблем.

В нашей стране проведена значительная работа по обеспечению свободы слова, совершенствованию системы управления информацией и усилению роли средств массовой информации в решении социальных проблем. Как отметил глава государства: «В нынешний период, когда наша Родина – любимый Узбекистан – вступает в новый и важный этап своего развития, представители медиасферы – журналисты и редакторы, режиссеры и операторы, блогеры, телеканалы и радиостанции, газеты и журналы, издательства и типографии – вносят неоценимый вклад в формирование демократического облика нашей страны и ее популяризацию в мире. Народ высоко ценит их деятельность.»¹ Медиа Узбекистана должно укреплять свои позиции во внутреннем и международном информационном пространстве. В связи с этим изучение данной темы важно для повышения эффективности медиасистемы, продвижения национальных ценностей и внедрения современных технологий.

Исследование в определённой степени служит реализации задач, предусмотренных рядом государственных программ, регулирующих отношения в сфере массовой информации в нашей стране. В частности, Указом № УП-5653 от 2 февраля 2019 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию информационной сферы и массовых коммуникаций», Указом № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также

¹ <https://azkurs.org/uzbekistonda-ommaviy-akhborot-vositalaringin-jamiyatda-orni.html>

постановлениями № ПП-6079 от 5 октября 2020 года «О цифровом Узбекистане – 2030», ПП-4699 от 28 апреля 2020 года «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронной системы государственного управления», № ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по выводу деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень» и Указом Президента Республики Узбекистан № УП-358 от 14 октября 2024 года «Об утверждении стратегии развития технологий искусственного интеллекта до 2030 года», а также другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления научного, технологического и инновационного развития республики «Формирование системы инновационных идей и их реализация в процессе социального, правового, экономического, культурного и духовно-просветительского развития информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. На сегодняшний день в лингвистике имеется ряд исследований, посвященных медиалингвистике, которые в основном анализируют язык СМИ, газетные тексты, интервью, новости и рекламные материалы. Эти исследования позволяют проводить лингвистический, идеологический и критический анализ медиадискурса.

Изучение медиадискурса широко представлено в мировой лингвистике в трудах таких исследователей, как А. Белл, Дж. Стоукс, М. Тэлбот, Д. Мачин, Т. ван Лёвен, Н. Фэркло, О. Бойд-Баррет, Дж. Херитидж и С. Клейман, Д. Грейтбэкс, Дж. Корнер, Р. Кей, Н. Фентон, Н. Ньюклер, П. Скэннел, Дж. Стоукс.²

В свою очередь, значительный вклад в формирование основ медиалингвистики внесли следующие российские ученые: Т. Добросклонская, Н. Алефиренко, Н. Оломская, В. Чернявская, А. Полонский, Т. Карпилович, М. Коновалова, М. Володина, Н. Чичерина, Т. ван Дейк³ и другие.

